

TTPU da shaxmat bo'yicha turnir o'tkazildi

Joriy yilning 14 fevral kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida Zahiriddin Muxammad Bobur tavalludining 540 yilligi munosabati bilan shaxmat turniri o'tkazildi. Turnirda universitet talabalari hamda Turin akademik litseyi o'quvchilari faol qatnashdi.

Qizg'in davom etgan turnir yakuniga ko'ra g'oliblar aniqlandi:

- 1-o'rinni Turin akademik litsey o'quvchisi – Otabek Umarov;
- 2-o'rinni Turin akademik litsey o'quvchisi – Fazliddinov Shoxjaxon
- 3-o'rinni universitetning 1-bosqich talabasi Turayev G'olib hamda 4-bosqich talabasi Xabibullaev Umidjon.

Turnir so'ngida g'oliblar sertifikat va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.













